

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.02/30.12.2019.FM.15.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

XALIKOVA ALINA VALEREVNA

**MAYDANAK OBSERVATORIYASIDAGI KUZATISHLAR ASOSIDA
MASHINAVIY O'RGANISH USULLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA
O'ZGARUVCHAN YULDUZLARNI QIDIRISH VA TAHLIL QILISH**

01.03.01- Astronomiya

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

Khalikova Alina Valerevna

Maydanak observatoriyasidagi kuzatishlar asosida mashinaviy o'rganish usullaridan
foydalangan holda o'zgaruvchan yulduzlarni qidirish va tahlil qilish
.....3

Халикова Алина Валерьевна

Поиск и анализ переменных звезд с использованием методов машинного обучения
по наблюдениям на обсерватории Майданак.16

Khalikova Alina Valerevna

Search and analysis of variable stars using machine learning methods from observations at
the Maidanak observatory
.....30

Список опубликованных работ

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
List of published works.....34

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.02/30.12.2019.FM.15.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

XALIKOVA ALINA VALEREVNA

**MAYDANAK OBSERVATORIYASIDAGI KUZATISHLAR ASOSIDA
MASHINAVIY O'RGANISH USULLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA
O'ZGARUVCHAN YULDUZLARNI QIDIRISH VA TAHLIL QILISH**

01.03.01- Astronomiya

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/FM1024 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.astrin.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Egamberdiyev Shuxrat Abdumannapovich,
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponenlar:

Grankin Konstantin Nikolaevich,
fizika-matematika fanlari doktori

Mirzaqulov Dovronbek Omatjonovich,
fizika-matematika falsafa fanlari doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti qoshidagi P.K. Sternberg Astronomiya Instituti (Rossiya)

Dissertatsiya himoyasi Astronomiya instituti huzuridagi PhD.02/30.12.2019.FM.15.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 16 avgust soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, Astronomiya instituti. Tel. (+99871) 235-81-02; faks (+99871) 234-48-67; e-mail: info@astrin.uz).

Dissertatsiya bilan Astronomiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (96B raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, 33-uy, O'zR FA AI. Tel. (+99871) 235-81-02).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 2 avgust kuni tarqatildi.
(2024-yil 2 avgust dagi 1 – raqamli reestr bayonnomasi)

D.Sh. Fazilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

I.A. Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi f.-m.f.n., katta ilmiy xodim

A.B. Abdikamalov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d., yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusini dolzarbligi va zarurati. Jahonda o'zgaruvchan turiga mansub yulduzlarni o'rganishga juda katta e'tibor qaratilgan. Ikki va ko'p sonli tizimlar kabi o'zgaruvchan yulduzlar asosiy yulduz o'lchamlari (yulduzlarning massasi va radiusi) haqida ma'lumot manbai hisoblanadi, ushbu o'lchamlar yulduzlarning shakllanish mexanizmlari, yulduz populyatsiyalari, evolyutsiya nazariyasi, ekzosayyoralarining «demografiyasi» va Galaktikaning kimyoviy va dinamik tarixini tushunish uchun kalit hisoblanadi. Biroq, ko'plab savollar ochiq qolmoqda. Masalan, qo'shaloq yulduzlar orbitalarining tsirkulyarizatsiyasining mavjud mexanizmlari va ularning samaradorligi, qo'shaloq tizimlarda davr va ekstsentrismetning taqsimlanishi va uning evolyutsion holati, O'Konnell effektining mavjudligining tabiati haligacha qizg'in bahs-munozaralar mavzusi hisoblandi. Bu borada Xalqaro Astronomiya Ittifoqi (XAI) – “Katta miqyosdagi kuzatuvlar orqali barcha tipdagi o'zgaruvchan yulduzlarni ko'proq kashf qilishda davom etish”¹ lozimligini ta'kidladi. O'zgaruvchan yulduzlarni osmonning bir xil maydonini qayta-qayta kuzatish orqali topish va o'rganish mumkin, natijada juda katta hajmdagi ma'lumotlar olinadi.

Jahonda hozirgi vaqtda astronomiya zamonaviy CCD-qabul qiluvchilar bilan jihozlangan yirik teleskoplar tomonidan olinayotgan va to'planayotgan kuzatuv ma'lumotlari miqdori keskin oshib bormoqda. Bunday ma'lumotlar hajmi astronomlar tomonidan qisqa vaqt ichida tahlil qila oladigan chegaralardan oshib ketadi. Shu sababdan tadqiqotchilar ma'lumotlarni tahlil qilish uchun kompyuterlardan foydalanib, o'tkazib yuborilishi mumkin bo'lgan muhim qonuniyatlar va bog'lanishlar aniqlamoqda. Ushbu jarayonlari hal etishda mashinaviy o'rganish deb nomlanuvchi usuldan foydalanish zamonaviy astronomiyada ajralmas quroliga aylanmoqda. Shuni ta'kidlash joyizki, mashinaviy o'rganish oldindan dasturlashtirilmagan, ammo o'rganish uchun ishlatiladigan ma'lumotlar asosida yaratilgan modellarga asoslanadi. Jahon tajribasi mashinaviy o'rganish usullari yordamida astronomlar oldindan aytib bo'lmaydigan kashfiyotlar qilish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatga ega ekanligini ko'rsatadi (bu *anomaliyalarni aniqlash* deb ataladigan usullar sohasi). Mashinaviy o'rganishning ko'p sonli usullari o'z navbatida ham usulni tanlash, ham ma'lumotlardan tavsiflovchi xususiyatlarni tanlash muammosini keltirib chiqaradi (mashinaviy o'rganish ko'p sonli usullarni talab qiladi). Bu yerda sinchkovlik bilan tanlangan statistik ma'lumotlarda mavjud bo'lmagan ishlov berilmagan ma'lumotlarning xususiyatlari bormi degan savolni tug'diradi.

Respublikamizda fundamental tadqiqotlarga, xususan, Yer va kosmik teleskoplar kuzatuvlari ma'lumotlarini tahlil qilishda mashinaviy usullarni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. “Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi”da² belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining Maydanak

1

IAU

Strategic

Plan

2020–2030.

https://www.iau.org/static/administration/about/strategic_plan/strategicplan-2020-2030.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni.

observatoriyasida o'zgaruvchan yulduzlarning intensiv monitoring kuzatuvlarini o'tkazish imkoniyatidan oqilona foydalanish, yaratilgan kuzatuv ma'lumotlari bazalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, hamda ularni tahlil qilish usullarini takomillashtirish asosida o'zgaruvchan ob'ektlarni mashinaviy o'rganish usullari yordamida tasniflash zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yildagi PP-4996-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi: Prezidentning 2021 yil 17 fevralidagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq amalga oshirilgan. (№ PP-4996).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda o'zgaruvchan yulduzlar tadqiqotlari bilan bu sohaga katta hissa qo'shgan xorijiy olimlardan Henrietta Swan Leavitt, Ejnar Hertzsprung, Harlow Shapley, Arthur Stanley Eddington, John Goodricke, Solon Irving Bailey, Edward Charles Pickering, Sergio Van der Maelen, Paul A. Wiegert, Bohdan Paczyński, Margarita Karovska, Robert Paul Kraft, Janet A. Mattei, Krzysztof Stanek, Gordon G. Meyers va MDH olimlaridan esa Boris Vasilyevich Kukarkin, Viktor Ambartsumian, Grigory Shajn, Dmitry Maksutov, Vladimir Albitzky kabi olimlarning fundamental va amaliy tadqiqotlari alohida e'tiborga molik.

O'zbekistonda o'zgaruvchan yulduzlarni o'rganish 19 asr oxirida boshlangan. Masalan, Toshkent Astronomiya Rasadxonasi Sirkulyariga ko'ra, 1932 yil uchun Toshkent Astronomiya rasadxonasida uch yuzdan ortiq RR Lyr, δ Cep, RV Tauri tipidagi yulduzlar, to'siluvchan va "o'rganilmagan" o'zgaruvchan yulduzlar N. Florya, B. Kukarkin, V. Maltsev kabi astronomlar tomonidan oddiy astrografda fotografik tarzda vizual kuzatilgan. O'tgan vaqt ichida o'zgaruvchan yulduzlarning deyarli barcha ma'lum turlari o'rganildi. Oxirgi 50 yil davomida asosiy e'tibor uchta turdagi ob'ektlarga qaratildi: yulduzlarning tug'ilish sohalridagi yosh asosiy ketma-ketligigacha bo'lgan yulduzlar, masalan, RR Lyr, δ Cep, RV Tauri yulduzlar va bosh ketma-ketlikdagi to'siluvchan qo'shaloq yulduzlar.

O'tgan asrning 70-yillarida ROTOR loyihasi doirasida Maydanak rasadxonasida yosh yulduzlarning kuzatuvlari olib borildi. Ushbu loyiha doirasida yulduzlarning intensiv tug'ilish sohalaridagi va to'dalardagi to'siluvchan sistemalarni tizimli o'rganish amalga oshirildi. Astrseysmologiya sohasida ham katta ishlar amalga oshirildi, masalan, δ Sct: V830 Her va HD 163032 tipidagi yulduzlarning 4 yillik kuzatuvlari tadqiqotini ko'rsatish mumkin. 2013-2014 yillarda SPAREBIS (Tutukov and Bogomazov, 2012) loyihasi doirasida Maydanak rasadxonasida ba'zi ma'lum to'siluvchan qo'shaloq yulduzlarning uzoq muddatli uzluksiz kuzatuvlari olib borildi. Lekin O'zbekistonda shu vaqtgacha o'zgaruvchan

yulduzlarning tadqiqotida kompyuterda o'rganish usullari qo'llanilmagan. Ammo bu tadqiqot ishi bizning mamlakatimizda bu astronomik soha bo'yicha birinchi dissertatsiya ishi hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotini dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Astronomiya institutining FA-F02-F027 "Yangi ekzoplanetalarni kashf qilish usuli sifatida tranzit tutilishlarining vaqtinchalik o'zgarishlarini kuzatish bo'yicha tadqiqotlar" va FA-F02-F028 "Yulduz atmosferalaridagi dinamik jarayonlar va magnit maydonlarni astro- va gelioseysmologiya usullari bilan o'rganish" ilmiy loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi an'anaviy va sun'iy neyron tarmoq va boshqa mashinaviy o'qitish kabi intellektual usullari asosida o'zgaruvchan yulduzlarni qidirish va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: IRAF muhitida katta xajmdagi kuzatuv ma'lumotlarini oldindan qayta ishlash va ko'p diafragmali differentsial fotometriyani avtomatlashtirish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish;

Olingan yorqinlik egri chiziqlari asosida fizik va geometrik parametrlarni aniqlash;

Haqiqiy ma'lumotlar asosida ma'lum parametrlarga ega sun'iy ma'lumotlarni yaratish va ushbu ma'lumotlarga nisbatan intellektual tahlilning turli usullarini taqqoslash;

PYTHON dasturlash tilining intellektual usullari kutubxonalarini asosida yorqinlik egri chiziqlarini tahlil qilish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va yozish;

Mashinani o'rganish usullarini haqiqiy yorqinlik egri chiziqlariga qo'llash, natijalarini tahlil qilish va talqin qilish.

Tadqiqot ob'ekti - fizik o'zgaruvchan yulduzlar, to'siluvchan qo'shaloq tizimlar.

Tadqiqotning predmeti - Maydanak Astronomik Observatoriyasida olingan raqamli CCD kuzatuvlari, yerdagi (ASAS, SuperWASP, ATLAS, ZTF) va sun'iy yo'ldosh (Kepler, TESS) tadqiqotlari va ma'lumotlar bazalaridan o'zgaruvchan yulduzlarning fotometrik yorqinlik egri chiziqlari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida PZS tasvirlarni qayta ishlash usullari, yulduzlarning differentsial fotometriya, yorqinlik egri chizig'ining xususiyatlarini aniqlashning statistik usullari, mashinani o'rganish usullari, to'siluvchan qo'shaloq tizimlarning fizik va orbital parametrlarini matematik modellashtirish usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi qo'yidagilardan iborat:

8 ta yulduzning o'zgaruvchanligi ilk marta kashf etilgan va tasniflangan (TYC3556-299-1, TYC3556-130-1, TYC3551-1535-1, TYC3215-1288-1, USNO-B1.0 1280-0618262, TYC3215-906-1, TYC3215-1406-1, USNO-B1.0 1357-0539679)

6 ta yulduzning o'zgaruvchanligi tasdiqlangan va tasniflangan (ATO J041.7194+41.4247, ATO J041.8690+41.3205, USNO-B1.0 1270-0272752, GSC 02007-00761, BD + 46°2731, USNO-A2.0 1200-08721202)

Bir qator tutilish tizimlarining dastlabki fizik va orbital o'lchamlari olindi.

Maydanak rasadxonasida kuzatilgan tanlangan maydonlarning barcha fotometrli yulduzlarining yorug'lik differentsial egri chiziqlari atlas tuzildi (400 mingdan ortiq yakka tartibdagi ekspozitsiyalar).

Mashinani o'rgatish usullarida, xususan, klaster tahlilida foydalanish uchun ma'lumotlarni taqdim etishning yangi usuli ishlab chiqildi.

ASAS o'zgaruvchan yulduzlar katalogida ekstsentrik orbitalarga ega bo'lgan qo'shaloq tizimlarda 19 ta yangi nomzod topildi va ularning ekstsentrisiteti va periastr uzunligi aniqlandi.

Ekstsentrisiteti 0.07 orbita bo'lgan 2 ta (yuqorida ko'rsatilgan 19 tadan) qo'shaloq tizimlarda, ehtimol, kuchli to'liqin sabab bo'lgan pulsatsiyalar mavjudligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqotda olingan natijalar fotometrik ko'p rangli kuzatuvlarning katta massivlarini yarim avtomatik tarzda qayta ishlash uchun dasturiy ta'minot sifatida foydalanilish mumkin.

Shuningdek Mashinaviy o'rganish usullaridan, shu turdagi yoki shunga o'xshash boshqa astronomik manbalarni o'rganishda dastlabki uslubiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur ishning natijalarini Respublika universitetlari astronomiya bo'limlari bakalavrlari va magistrleri uchun maxsus kurslarga ham kiritilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ma'lumotlarni qayta ishlashning zamonaviy raqamli usullari va algoritmlarini qo'llash, samaradorlikni baholash me'zonlari va yulduz tizimlarining parametrlarini hisoblash, shuningdek, erishilgan xulosalarni boshqa mualliflarning tadqiqot natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, mashinani o'rgatish usullarini qo'llash uchun yorug'lik egri chiziqlarini ko'rsatishga yangi yondashuv fanning boshqa sohalarida vaqt qatorlarini tahlil qilishda va mashinani o'rgatish usullarini takomillashtirishda foydalanish uchun istiqbolli hisoblanadi. Olingan natijalar o'zgaruvchan yulduzlarning shakllanishi, evolyutsiyasi va statistikasining ba'zi jihatlarini tushunish, tutilayotgan yulduzlarning fazoviy va fizik xususiyatlarini aniqlashtirish, to'liqinli tsirkulyarizatsiya nazariyalarini o'rganish va to'liqinli qo'zg'atilgan tebranishlarning tabiatini o'rganish uchun foydalidir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, topilgan uchta yangi o'zgaruvchan yulduz OKPZ katalogiga kiritilgan. Ushbu natijalar butun Jahon astronomlari tomonidan foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini amalda qo'llanishi. Ilmiy maqolalarda chop etilgan nazariy natijalar va tadqiqot usullaridan Fesenkov nomidagi Astrofizika instituti loyihalari doirasida mashinaviy o'rganish usullaridan foydalangan holda oqimli fotometriya natijalari asosida o'zgaruvchan yulduzlarni qidirish uchun

foydalanilgan (Qozog‘iston Respublikasi, Fesenkov nomidagi Astrofizika institutining 2023 yil 5 yanvardagi xatiga qarang).

Yangi o‘zgaruvchan yulduzlarni kashf etish bo‘yicha chop etilgan ishlar asosida 3 yulduz <http://www.sai.msu.su/gcvs/gcvs/index.htm> elektron manzil orqali ommaga ochiq bo‘lgan va Astronomy Reports jurnalida chop etilgan “O‘zgaruvchan yulduzlarning umumiy katalogi yangi versiya (OKPZ 5.1)” xorijiy katalogiga kiritildi (Volume 61, Issue 1, 2017, pp.80-88). Ushbu 3 yulduzga o‘zgaruvchan yulduzlarning umumiy katalogi (OKPZ) tizimida o‘z nomlari berilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 6 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiyalar va seminarlarda ma‘ruza qilingan va muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy maqola, jumladan, xalqaro nashrlarda 8 ta ilmiy maqola va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi(OAK) tomonidan asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan respublika ilmiy nashrlarida bitta maqola chop etilgan.

Muallifning shaxsiy hissasi. Dissertatsiya muallifi ilmiy ishda qayd etilgan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Maydanak rasadxonasi teleskoplarining barcha fotometrik kuzatuv ma‘lumotlariga (400 mingdan ortiq individual ekspozitsiyalarda) dastlabki ishlov berishni shaxsan amalga oshirdi. Muallif katta hajmdagi kuzatuv ma‘lumotlarini oldindan qayta ishlash va ko‘p diafragmali fotometriyani avtomatlashtirish uchun dasturiy ta‘minotini ishlab chiqdi. PHOEBE paketi yordamida to‘siluvchan tizimlarni modellashtirish natijalari muallifga tegishli. Muallif, shuningdek mashinaviy o‘rganish usullarini qo‘llash uchun yorqinlik egri chizig‘ini ifodalashda yangicha yondashuvni shaxsan ishlab chiqdi. Yorqinlik egri chizig‘ini tahlil qilish uchun intellektual uslublar kutubxonalaridan foydalangan holda barcha dasturiy ta‘minot muallif tomonidan yozilgan. Dissertatsiyadagi to‘rtinchi bobda keltirilgan asosiy natijalar va ularning tahlili shaxsan muallif tomonidan qo‘lga kiritilgan. Nashr qilingan I.1, I.2, I.3, I.4, I.5, I.7, I.8 ishlarida dissertant ravshanlik egri chiziqlarini hosil qilish, olingan fotometrik ma‘lumotlarni muhokama qilish va izohlash uchun mas‘ul bo‘lgan. I.1, I.8, I.9 ishlarida dissertant qo‘shaloq tizimlarni sonli modellashtirishni amalga oshirgan. I.9 ishda g‘oya, tadqiqot predmeti va ob‘ektini tanlash, metodologiya, natijalarni tahlil qilish va izohlash dissertatsiya muallifiga tegishli.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ruyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 169 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanadi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyektlari va predmeti ifodalab beriladi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon

qilingan, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib beriladi, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.

Birinchi bob "O'zgaruvchan yulduzlarni o'rganish sohasida zamonaviy tadqiqotlarni ko'rib chiqish" deb nomlanib, to'rtta paragrafdan iborat. Birinchi paragraf yulduzlar o'zgaruvchanligi turlari haqidagi zamonaviy g'oyani ko'rib chiqishga bag'ishlangan, muammoning umumiy qo'yilishi ochib berilgan. Ikkinchi paragrafda pulsatsiyalanuvchi o'zgaruvchan yulduzlarning asosiy tavsifnomalari berilgan. Pulsatsiyalanuvchi beqarorlik yulduzlar evolyutsiyasining ma'lum bosqichlarida yuzaga keladi, shuning uchun pulsatsiyalanuvchi o'zgaruvchan yulduzlarni davriy davomiyligi, yorug'lik egri chiziqli massasi, spektr turi va boshqa kuzatuv belgilari bo'yicha tasniflash ularning evolyutsion statusi, ya'ni massa, yosh va kimyoviy tarkibning ma'lum qiymatlariga ega yulduzlar guruhiga tegishlilikini aks ettiradi. Uchinchi paragrafda bir xil bo'lmagan sirt yorqinligi va/yoki ellipsoid shakllari bo'lgan o'zgaruvchan yulduzlar tavsiflangan, ularning o'zgaruvchanligi kuzatuvchiga nisbatan o'qli aylanishi bilan yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bundan tashqari, sirt yorqinligi taqsimotining bir xil emasligi dog'lar yoki o'qi aylanish o'qiga to'g'ri kelmaydigan magnit maydon bilan yuzaga kelgan atmosferaning ba'zi issiqlik yoki kimyoviy bir xil emasligining mavjudligi bilan yuzaga kelishi mumkin. To'rtinchi paragrafda tutilgan qo'shaloq yulduzlar, O'Konnell effekti va ularning sabablari va mexanizmlarini yuzaga keltiradigan orbitaning ekstsentrisiteti kabi tutilgan qo'shaloq yulduzlarning effekti haqida so'z boradi. Bobning ifodalangan xulosalari shundan iboratki, o'zgaruvchan obyektlarning tasniflashi, albatta, kuzatilayotgan xususiyatlarga – fotometriyaga, spektral tavsifnomalarga asoslanadi. Tasniflashning yakuniy maqsadi manbaning tabiati va o'zgaruvchanlikning sabablari haqida ko'proq bilish uchun o'zgaruvchan manbalarni fizik toifalarga ajratishga uirinib ko'rishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish, ba'zi bir turli xil fizik jarayonlar bir xil xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi bilan murakkablashadi.

Ikkinchi bob uch paragrafdan iborat bo'lib, "Fotometrik kuzatuvlarni ishlov berish uslubiyoti va avtomatlashishi" deb nomlanadi va Maydanak observatoriyasida olingan monitoring fotometrik ma'lumotlariga ishlov berish uslubiyotini tavsiflashga bag'ishlangan. Birinchi paragrafda fotometrik ma'lumotlarga ishlov berish uslubiyotining tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari tavsiflangan. Ishlov berishni avtomatlashtirish zarurati asoslanadi. Ikkinchi paragrafda kuzatuvlarga ishlov berishning asosiy bosqichlari, differentsial fotometrik kattaliklarni olish va referent tuzilishi, shuningdek yorug'lik egri chizig'ining tarqoqligi minimal bo'lgan apertura va referent yulduzlarining mumkin bo'lgan birikmalarini izlash orqali optimal yorug'lik egri chizig'ini qurish bosqichlari tavsiflangan.

Uchinchi paragrafda ko'p sonli ma'lumotlarga yarim avtomatik ishlov berish uchun dasturiy ta'minot tuzilishi tavsiflangan. Monitoring kuzatuvlarini ishlov berish jarayonini maksimal darajada avtomatlashtirish maqsadida IRAF paketi bilan yetkazib beriladigan dasturlash tilida yozilgan skriptlar to'plami shaklidagi dasturiy ta'minot (pipeline) ishlab chiqilgan. Pipeline IRAF tilida 14 ta skript,

gnuplot grafik dasturi tilidagi skript va parametrlarga ega 2 ta yordamchi fayllardan iborat.

1-jadval. Aniqlangan va tasdiqlangan o‘zgaruvchan yulduzlarning ba‘zi parametrlari va tasniflashi.

Yulduz	Tasniflash	Yulduz kattaligi	Amplituda	Davr, kunda
TYC3215-1288-1 = USNO-B1.01280-0618346 = 2MASS 22534875+3804030:	noto‘g‘ri o‘zgaruvchan yulduz	10.3(22) ^m (V(AAVSO))	$\Delta R \approx 0.09^m$	
USNO-B1.01280-0618262 = UCAC4641-124229 = 2MASS 22533785+3802543	yarim to‘g‘ri o‘zgaruvchan yulduz, o‘zgaruvchanligi aylanish modulyatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin	13.1(29) ^m (V(AAVSO))	$\Delta R \approx 0.06-0.07^m$	12.7
TYC3215-906-1 = USNO-B1.01279-0627071 = 2MASS 22533785+3802543	faol sohalar bilan qo‘shaloq yulduzlar tizimi	11.9(27) ^m (V(AAVSO))	$\Delta R \approx 0.05^m$	0.56
TYC3215-1406-1 = USNO-B1.01278-0636029 = 2MASS 22532635+3751194	noto‘g‘ri o‘zgaruvchan yulduz	10.6(34) (V(AAVSO))	$\Delta R \approx 0.085^m$	
GSC 2007:761 = V* IO Boo = 2MASS J14125096+2432023 = TIC 156563223	tutilgan qo‘shaloq yulduzlar tizimi (EW)	11.87 ^m (V)	$\Delta V \approx 0.5^m$	0.271
USNO-B1.01357-0539679 = UCAC4679-131592 = 2MASS 23494870+4543155	tutilgan qo‘shaloq yulduzlar tizimi (EW)	16.1(86) ^m (V(AAVSO))	$\Delta R \approx 0.18^m$	0.34(27)
BD+46°2731 = NSV 12196		9 ^m (V)	$\Delta V \approx 11.925$ mmag	0.05277
TYC3556-299-1 = Kepler ID 9470054	tutilgan qo‘shaloq yulduzlar tizimida δ Sct tipidagi ehtimoliy yulduz	12 ^m (V)	$\Delta V \approx 6.00 \pm 0.53$ mmag	0.058
TYC3556-130-1 (OKII3)	δ Sct	10.7 ^m (V(AAVSO))	$\Delta V \approx 3.75 \pm 0.41$ mmag	13.364
USNO-A2.0 1200-08721202 = Gaia DR2 4609073823615498880	δ Sct	12.8 ^m (R)	$\Delta R \approx 0.04^m$	0.085
TYC3551-1535-1	δ Sct	11.28 ^m (V)	$\Delta V \approx 0.02^m-0.03^m$	0.1124

Quyida bobning asosiy xulosalari keltirilgan, ular quyidagilardan iborat: tadqiqot doirasida fotometrik ma‘lumotlarga ishlov berish uchun ko‘p sonli bir hil kuzatuv ma‘lumotlari bilan ishlash uchun maxsus tarzda yozilgan yarim avtomatik ishlov berish va differentsial ko‘p aperturali fotometriya uchun skriptlar to‘plami (pipeline) ishlab chiqilgan va qo‘llanilgan.

"O‘zgaruvchan yulduzlarni aniqlash. An'anaviy uslub" uchinchi bobida o‘zgaruvchanlikni aniqlash yoki tasdiqlash, tasniflash, 11 ta yulduz uchun fizik parametrlarni belgilash muhokama qilinadi.

Birinchi paragrafda kuzatuvlar haqida batafsil ma‘lumot taqdim etiladi.

Ikkinchi paragrafda GSC 02007-00761 tutilgan qo'shaloq yulduzning dastlabki fizik parametrlarini tasdiqlash, tasniflash va olish tavsiflangan.

Uchinchi paragrafda BD+46°2731 yulduz o'zgaruvchanligini tasniflash va tasdiqlash berilgan.

To'rtinchi paragrafda TYC3556-299-1 tutilgan qo'shaloq tizimida topilgan pulsatsiyaviy beqarorlik va TYC3556-130-1 yulduzining ilgari noma'lum o'zgaruvchanligi muhokama qilindi.

Beshinchi paragraf USNO-A2.01200-08721202 yangi o'zgaruvchan yulduzni o'rganishga bag'ishlangan.

Oltinchi paragrafda biz kashf etgan TYC3551-1535-1 o'zgaruvchan yulduzning o'tkazilgan tasniflashi tavsiflangan.

Yettinchi paragraf biz kashf etgan USNO-B1.0 1357-0539679 yangi qo'shaloq yulduzni tahlil qilishga bag'ishlangan.

Sakkizinchi paragraf to'rt yulduz: TYC3215-1288-1, USNO-b1.0 1280-0618262, TYC3215-906-1 va TYC3215-1406-1 ning o'zgaruvchanligini kashf etishga bag'ishlangan.

1-jamlama jadvalda yuqorida keltirilgan paragraflarning asosiy natijalari keltirilgan.

To'rtinchi bobda "Mashinaviy o'rganish uslublari bilan o'zgaruvchan yulduzlarning yorug'lik egri chiziqlarini tahlil qilish" - tahlilning intellektual uslublari yordamida o'zgaruvchan yulduzlarni tasniflash va aniqlash muammolari (uni binar tasniflash muammosi yoki anomalialarni aniqlash muammosi deb hisoblash mumkin) muhokama qilingan.

Birinchi paragrafda muammoning umumiy qo'yilishi belgilangan, ya'ni o'zgaruvchan yulduzlarni tasniflash qobiliyati yorug'lik egri chiziqlarini ko'rsatish uslubiga juda bog'liq. Tanlangan funktsiyalar o'zgaruvchanlikning xarakterli xususiyatini - tuzilishi va axborot tarkibini miqdoriy aniqlashi kerak.

Ikkinchi paragrafda muallif tomonidan o'qituvchisiz mashinaviy o'rganish (klasterlash) vazifalari uchun yorug'lik egri chiziqlarini ko'rsatishning yangi uslubi tavsiflangan. Klasterlash - bu turli guruhlarining obyektlari bir guruh ichidagi obyektlarga qaraganda ko'proq farq qiladigan tarzda obyektlarni guruhlarga bo'lish jarayoni. Kepler kosmik missiyasi ma'lumotlari bilan bir qatorda bo'shliqlar bilan sun'iy ma'lumotlarga yangi yondashuvni qo'llash natijalari keltirilgan.


Yangi uslubning samaradorligini baholash uchun u vaqt qatorlari – Vaqtni dinamik o'zgartirish (DTW - Dynamic Time Warping) va korrelyatsiya koeffitsientlari (SS) yordamida masofa matritsasini hisoblashni klasterlash uchun qo'llaniladigan standart uslubiyot bilan taqqoslandi. Ushbu uchta algoritmlarning aniqligini baholashning birinchi mezoni ularga asoslangan klasterlash trendlarning har xil turlari bilan sun'iy ravishda yaratilgan vaqt qatorlarini qanchalik yaxshi ajrata olishiga qarab tanlangan edi. Har bir qatorning o'rtacha qiymati va shovqin komponenti ishda ishlatiladigan haqiqiy kuzatuvlarning "yulduz kattaligi - standart og'ish" bog'liqligidan foydalangan holda olingan. Ma'lumotlardagi bo'shliqlarning ta'sirini tadqiq qilish uchun o'lchovlarning 100% dan umumiy miqdorning 75%, 50% va 25% qoladigan qilib, nuqtalarning bir qismi tasodifiy tarzda olib tashlandi.

Olinayotgan yechimni har tomonlama baholashga imkon beradigan klasterlash sifatini baholash uchun bir qator mezonlar keltirildi. Umumiy sonning 100%, 75%, 50% va 25% nuqtalari soni bo'lgan ma'lumotlar uchun GMM uslubi kabi eng samarali SS algoritmlari mos ravishda aniqlik qiymatlarini ko'rsatadi (Accuracy): 0.91, 0.91, 0.9, 0.87; DTW uslubi uchun GMM-algoritmi aniqlikni ko'rsatadi (Accuracy): 0.96, 0.89, 0.96, 0.84; 10x10 bin kabi bo'linish uchun yangi yondashuv Kmeans klasterlash algoritmi mos ravishda 0.98, 0.99, 0.98, 0.96 aniqligini ko'rsatadi.

Yangi uslubni haqiqiy yorug'lik egri chiziqlarida tekshirib ko'rish uchun shuningdek Kepler kosmik missiyasining tutilgan qo'shaloq yulduzlari katalogidan (Slawson et al., 2011) yorug'lik egri chiziqlarining klaster tahlili va morfologik tahlili (Gal Matijević, 20120) ni taqqoslash o'tkazildi. 1-rasm va 2-jadvalda klasterlash samaradorligi choralari va yangi uslub va DTW uslubi bilan xatolarning matritsalari keltirilgan. '0' sinfi - ajratilgan tizimlar, '1' sinfi - yarim ajratilgan tizimlar va '2' sinfi - kontakt tizimlari.

2-jadval. DTW-uslub (a) va yangi uslub (b) dan foydalangan holda klaster tahlili samaradorligining choralari.

метод	a) DTW-метод, Accuracy = 57.9%			b) Новый метод, Accuracy = 77.3%		
класс	0	1	2	0	1	2
F1	0.67	0.44	0.58	0.80	0.69	0.84
precision	0.52	0.6	0.78	0.82	0.76	0.74
recall	0.94	0.34	0.46	0.78	0.63	0.99



1-rasm. DTW-uslub (a) va yangi uslub (b) uchun xatolarning matritsalari.



To'rtinchi bobning uchinchi paragrafida yangi uslubni haqiqiy yorug'lik egri chiziqlarida testdan o'tkazishni davom ettirish uchun All Sky Automated Survey (ASAS-3) ma'lumotlar bazasi tanlandi. Tutilgan tizimlar morfologiyasining har xil turlari hali ham tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilgan edi, chunki ushbu tizimlarning yorug'lik egri chiziqlarining "o'xshashligi" bizning samaradorligimizni tekshirishda qo'shimcha qiyinchilik tug'diradi. Shuningdek yangi uslub yaxshi samaradorlik va tezlikni ko'rsatdi (3-jadval va 2-rasmga qarang).

Sun'iy qatorlarni yaratish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish uchun dasturiy qobiq python 2.7 dasturlash tilida, xususan scikit-learn va fastdtw kutubxonasi tilida yozilgan edi.

Klasterlash yordamida ASAS-3 katalogining yorug'lik egri chiziqlarini tahlil qilishni davom ettirgan holda keyingi qadam ma'lumotlardagi anomalialarni aniqlashga aylandi. Bizning maqsadimiz orbitaning sezilarli ekstsentrissetiga ega tizimlarning yorug'lik egri chiziqlarini aniqlash edi, ularning o'ziga xos xususiyati yorug'lik egri chizig'ining assimetriyaliligida – xususan, 0.5 fazadan ikkilamchi minimumning siljishida aks etadi. Natijada eksentrissetga ega yangi tizimlarning 19 ta nomzodi tanlab olindi. Tanlanganlarni yanada tahlil qilish uchun TESS (Transiting Exoplanet Survey Satellite) missiyasining kuzatuv ma'lumotlari va JKTEBOP qo'shaloq yulduzlarni modellash uchun dasturlar paketi ishlatilgan. 10 ta tizim uchun hisob-kitoblar 0,1 dan ortiq ekstsentrisset qiymatlarini beradi, bu ularni kuchli ekstsentrik tizimlarga kiritishga imkon beradi. Ulardan 6 tasi 1,4 dan 6,7 kungacha nisbatan kichik davrlarga ega, qolgan 4 tasi ancha katta, 18,8-21,6 kun davrlarga ega. Barcha tizimlarning ekstsentrisseti 0.04 dan 0.55 gacha diapazonda baholanadi va ularning aksariyati xususiy tutilishlarni ko'rsatadi. ASAS J063824-0415.5 va ASAS J105359-4919.9 ikkita tizimlarida, ehtimol, kuchli to'liqlar ta'siri sababli yuzaga kelgan tizimning kamida bitta yulduzi pulsatsiyalarining alomatlari aniqlangan edi.

3-jadval. ASAS ma'lumotlarining klasterli tahlil qilish samaradorligi choralari. DTW-uslub (I) va yangi uslub (II). 2-sinf - ajratilgan tizimlar, 1 yarim ajratilgan tizimlar va 0 – kontaktli tizimlar).

I. FastDTW. BIRCH. Accuracy=0.61				II. BIRCH. Accuracy=0.77			
Class	Precision	Recall	F-score	Class	Precision	Recall	F-score
0	0.58	0.99	0.74	0	0.75	0.91	0.82
1	0.0	0.0	0.0	1	0.66	0.37	0.47
2	0.77	0.5	0.61	2	0.9	0.95	0.92



2-rasm DTW-uslub (a) va yangi uslub (b) bilan klasterlash uchun xatolarning normallashtirilgan matritsasi.

To'rtinchi paragrafda klaster tahlili V873 Per va CV Boo tutilgan qo'shaloq tizimining maydonlari Maydanak rasadxonasining monitoring kuzatuvlarini tahlil qilish uchun qo'llanilgan. Kuzatishlar tahlili o'zgaruvchanlikni tasdiqlash va 3 ta

yulduzni tasniflash imkonini berdi. ATO J041.7194+41.4247 yulduzi 5.94 kunlik davr bilan yaqin tutilgan tizim bo'lib chiqdi, ATO J041.8690+41.3205 yulduzi taxminan 7 kunlik davr bilan sefeid sifatida tasniflandi, USNO-B1.0 1270-0272752 yulduzi 0.33 kunlik davr bilan ellipsoidal tutilgan qo'shaloq tizim sifatida tasniflandi.

Bob bo'yicha quyidagi xulosalar ifodalandi: mashinani o'rganish uslublarida, xususan klaster tahlilida qo'llash uchun ma'lumotlarni taqdim etishning yangi uslubi taklif qilindi va muhokama etildi. Ma'lumotlarning yangi ko'rinishini yaratish quyidagi mezonlarga asoslangan edi: hisoblash vaqtining pasayishi, bo'shliqlar va shovqinlarga befarqlik, miqyoslilik, tahlilning keyingi bosqichlarida nazorat qilinuvchi uslublarni qo'llash qobiliyati. O'tkazilgan tajriba natijalari yangi yondashuvning klasterlash sifati va tezligini sezilarli darajada yaxshilash qobiliyatini ko'rsatadi.

7 ta **ilovalarda** quyidagi jadvallar keltirilgan: Fotometrik ma'lumotlarga ishlov berish uchun skript fayllarining funktsional harakatlari bo'yicha axborot; TRES-4, AP And; SW Lac maydonlaridagi kuzatuvlar; NGC 6811, V873 Per, V2364 Cyg, CV Boo to'dalari to'g'risida axborot. USNO-B1.0 1357-0539679 yulduzining (ToM) va (O-C) minimumlarining momentlari; Qatorlarni $M \times N = 12 \times 12, 10 \times 10, 8 \times 8, 6 \times 6$ binlarga ajratish va yaxshi klasterlash uchun xatolarning tegishli matritsalar uchun umumiy miqdordan 100%, 75%, 50%, 25% o'lchovlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar uchun yangi uslub asosida 9 ta klasterlash uslublari uchun sun'iy vaqt qatorlarining tanlanganlarini klasterli tahlil qilish samaradorligi choralari; TESS katalogi ma'lumotlari va ekstsentrisitet bilan nomzod tutilgan qo'shaloq yulduzlarning parametrlari va alohida obyektlar bo'yicha qaydlar.

XULOSA

Dissertatsiya ishida qo'yidagi asosiy natijalar qo'lga kiritilgan:

Katta hajmga ega bo'lgan bir xil fotometrik ko'p rangli kuzatuvlarni yarim avtomat qayta ishlash uchun dasturiy ta'minot to'plami ishlab chiqilgan va joriy qilingan.

14 ta yulduzning o'zgaruvchanligi aniqlandi yoki tasdiqlandi va sinflandi.

Bir qator to'siluvchan tizimlarning dastlabki fizik va orbital parametrlari olingan.

Mashinaviy o'rganish usullarida, hususan klaster tahlilida yorqinlik egri chiziqlarini ifodalashning yangi usuli taklif qilingan va joriy etilgan.

ASAS-3 o'zgaruvcha yulduzlar katalogida ekstsentrik orbitaga ega bo'lgan, 19 ta yangi to'siluvchan qo'shaloq tizimlarga nomzod topildi va ularning ekstsentrisiteti hamda pereastr uzunligi aniqlangan.

Keltirilgan ekstsentrik orbitaga ($e=0.07$) ega bo'lgan qo'shaloq tizimlardan 2 tasida ehtimol kuchli tulqinlar sababli yuzaga kelgan past amplitudali pulsatsiyalar kashf etilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.02/30.12.2019.FM.15.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АСТРОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

АСТРОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ АН РУз

ХАЛИКОВА АЛИНА ВАЛЕРЬЕВНА

**ПОИСК И АНАЛИЗ ПЕРЕМЕННЫХ ЗВЕЗД С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ПО
НАБЛЮДЕНИЯМ НА ОБСЕРВАТОРИИ МАЙДАНАК**

01.03.01 - АСТРОНОМИЯ

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024 год

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2024.1.PhD/FM1024

Диссертация выполнена в Астрономическом институте АН РУз.

Автореферат диссертации на трех языках (русском, узбекском и короткая аннотация на английском) размещён на веб-странице Научного совета (www.astrin.uz) и Информационного-образовательного портале “Ziynet” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Эгамбердиев Шухрат Абдуманнапович,**
доктор физико-математических наук, академик

Официальные оппоненты: **Гранкин Константин Николаевич,**
доктор физико-математических наук

Мирзакулов Довронбек Оматжонович,
доктор философии физико-математических наук
(PhD)

Ведущая организации: **МГУ имени М.В. Ломоносова,**
Государственный астрономический институт
имени П.К. Штернберга

Защита диссертации состоится 16 августа 2024 года в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.02/30.12.2019.FM.15.01 при Астрономическом институте (Адрес: Астрономическая, 33, 100052, г. Ташкент. Тел.: (+99871) 235-81-02; факс: (+99871) 234-48-67; e-mail: info@astrin.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Астрономическом институте (регистрационный номер 96Б) по адресу: 100052, г. Ташкент. Астрономическая, 33, Астрономический институт, тел.: (+99871) 235-81-02).

Автореферат диссертации разослан 2 августа 2024 г.
(Реестр протокола рассылки № 1 от 2 августа 2024 г.)

Д.Ш. Фазилова
Заместитель председателя Научного совета
по присуждению ученой степени, д.ф.-м.н., профессор

И.А. Ибрагимов
ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученой степени, к.ф.-м.н.

А.Б. Абдикамалов
председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению ученой степени, д.ф.-м.н.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире на сегодняшний день изучению переменных звезд уделяется большое внимание. Такие переменные звезды, как двойные и кратные системы являются источником информации об основных звездных параметрах (массах и радиусах звезд), которые являются ключом к пониманию механизмов формирования звезд, звездных популяций, теории эволюции, “демографии” экзопланет, химической и динамической истории Галактики. Однако, есть также много открытых вопросов. Например, существующие механизмы циркуляризации орбит двойных звезд и их эффективность, распределение периода и эксцентриситета в двойных системах и его эволюционный статус, природа существования эффекта О’Коннелла, являются все еще предметом острых дискуссий. В связи с этим Международный Астрономический Союз (МАС) подчеркнул необходимость «обнаружения переменных звезд всех типов с помощью крупномасштабных наблюдений»¹. Переменные звезды можно обнаружить и исследовать, неоднократно наблюдая один и тот же участок неба, что приводит очень большой объем данных.

На сегодняшний день в мире астрономия начинает сталкиваться с проблемой все более возрастающих потоков данных, производимых большими обзорными телескопами, оснащенными ПЗС-приемниками. Именно благодаря их применению уже накоплены и продолжают накапливаться большие объемы цифровых данных во всех обсерваториях по всему миру. Такие объемы данных выходят за рамки того, что астрономы могут проанализировать в более-менее разумные сроки. Поэтому исследователи обращаются к обучению компьютеров анализировать данные, выявляя важные закономерности и связи, которые в противном случае могут быть упущены. Этот процесс называется машинным обучением, а методы, использующие машинное обучение стали незаменимым инструментом современной астрономии. Важно отметить, что машинное обучение создает модели, которые не запрограммированы заранее, а создаются на основе данных, используемых для обучения. Мировой опыт показывает, что с помощью методов машинного обучения, астрономам открывается беспрецедентная возможность делать открытия, которые нельзя предсказать (это область методов, называемых *обнаружением аномалий*). Многочисленные методы машинного обучения в свою очередь создают проблему выбора, как методов, так и выбора описательных характеристик из данных (что требуют множество методов машинного обучения). Здесь назревает вопрос существования в необработанных данных характеристик, которых нет в тщательно отобранной статистике.

¹ Transactions IAU, Volume XXVIII. <https://www.cambridge.org/core/services/aop-cambridge-core/content/view/C08F90F3B066CAEB1440C1A1BAB63F85/S1743921312002840a.pdf/commission-27-variable-stars.pdf>.

В нашей Республике большое внимание уделяется фундаментальным исследованиям, в частности совершенствованию методов анализа данных наблюдений земных и космических телескопов. В целях реализации задач, определенных в «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»², возникла необходимость решения вопроса повышения эффективности использования проводимых интенсивных мониторинговых наблюдений Майданакской обсерватории Института Астрономии Академии наук Узбекистана, в частности обнаружение и классификация переменных звезд в окрестностях программных объектов с помощью методов машинного обучения.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», а также в Постановлении Президента от 17.02.2021 г. «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта» (№ ПП–4996) и других нормативно-правовых документов, связанных с данной деятельностью.

